

INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AMALIYOTI VA MUAMMOLARI, VAKOLATLI ORGANLAR FAOLIYATI T AHLILI

Maxmudov Faxriddin Foziljon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

E-mail: yuristmff@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqola intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvidagi amaliyot, ushbu sohadagi davlat boshqaruvi bilan bog‘liq muammolar masalasiga e’tibor qaratilgan. Maqolada intellektual mulk sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini tahlil qilish orqali mavjud yutuq va muammolar tahlil qilishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada jahon tajribasi, MDH davlatlaridagi intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi amaliyoti va tajribasi o‘rganilgan. Tahlil va o‘rganishlar bo‘yicha intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvini tamokillashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual mulk, davlat boshqaruvi, xalqaro shartnoma, bitim, moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, strategiya, mualliflik huquqi, bojxona reestri.

ABSTRACT

The article focuses on the practice of state management in the field of intellectual property, problems related to state management in this field. We can see that the author analyzed the existing achievements and problems by analyzing the activities of competent bodies in the field of intellectual property. Also, the article examines the world experience, the practice and experience of state management in the field of intellectual property in the CIS countries. Based on the analysis and studies, proposals were made for the improvement of state management in the field of intellectual property.

Keywords: intellectual property, public administration, international agreement, deal, tangible assets, intangible assets, personal propriety rights, strategy, copyright, customs register.

Intellektual mulk inson aqlining nomoddiy ijodlarini o‘z ichiga olgan mulk toifasi hisoblanadi. Intellektual mulk obyektlarining ko‘p turlari mavjud va ba’zi davlatlar boshqalardan ko‘ra ko‘proq obyektlarni o‘z qonunchiligidagi tan oladi. Eng mashhur intellektual mulk obyekti turlari sifatida patentlar, mualliflik huquqlari, savdo belgilari

va tijorat sirlaridir. Intellektual mulkning zamonaviy konsepsiysi 17-18-asrlarda Angliyada ishlab chiqilgan. "Intellektual mulk" atamasi 19-asrda qo'llanila boshlandi, garchi XX asr oxiriga kelib intellektual mulk dunyoning aksariyat huquq tizimlarida odatiy holga aylanganligini inobatga olinsa ham.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng turli sohalar bilan bir qatorda mulkchilik sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Milliy qonunchilikda mulkiy huquqlar doirasi kengaydi va huquqiy tomondan mustahkamlab qo'yildi. Xususan, fuqarolarning ijodiy faoliyati natijalari, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining individuallashtirish vositalari mol-mulk sifatida to'la e'tirof etildi. Natijada mulkiy huquqlar majmuida yangi tizim - intellektual mulk huquqi vujudga keldi.

Insonlar hayotida bir mulk borki, uni huquqiy muhofaza va himoya qilish davlatlar kelajagi va taraqqiyotiga dahldor hisoblanadi. Bu – intellektual mulkdir, ya'ni insonlarning intellektual faoliyati, aql-idroki, ongu tafakkuri, ijodkorligi va qobiliyati natijasida vujudga keladigan bebafo aktivdir.

Shu nuqtai nazardan dunyoning barcha davlatlari intellektual mulk sohasini zamon bilan hamnafas rivojlantirib borishga xarakat qiladilar. Chunonchi, qaysiki davlatda intellektual faoliyat natijalarini muhofaza qilish samarali yo'lga qo'yilgan bo'lsa, ixtiro, foydali model, seleksiya yutuqlari yaratilishi har tomonlama qo'llab-quvvatlansa hamda ularni yaratish uchun shart-sharoitlar yaratib berilsa, bunday davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salmog'i ham yuqori bo'ladi.

Shu jihatdan so'nggi yillarda mamlakatimizda ham intellektual mulk sohasini rivojlantirish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq ma'muriy tartib-taomillarni soddallashtirish, intellektual mulkni ta'sirchan huquqiy mexanizm bilan himoya qilish, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish bo'yicha tizimli va samarali islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Respublikamizda intellektual mulk bozori tizimining yaratilishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1995 yillarga to'g'ri kelib, bu davr jahon patent tizimi tajribasini o'rganish, sohaga oid ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, milliy qonunchilik asoslarini yaratish, davlatning vakolatli organi, ya'ni Davlat patent idorasи, Mualliflik huquqini himoya qilish agentligining tashkil etilishi va oyoqqa turishi yillari bo'ldi.

Ikkinchi bosqich 1996-2002 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda intellektual mulk boyliklarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjalari takomillashtirildi. Jumladan, "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida", "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida", "Integral mikrosxemalar

topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Bu yillarda faqatgina patent huquqi sohasida umummajburiy xarakterdagи 15 ta hujjat va idora faoliyatini tartibga soladigan 120 dan ziyod me’yoriy hujjat ham ro‘yxatga olinganini qayd etib o‘tish lozim. Bu rivojlangan davlatlarning shu sohada faoliyat olib boradigan idoralari tajribasini respublikamizda tizimli hamda samarali joriy etish imkonini berdi.

Uchinchchi bosqich 2003-yildan boshlanib, hozirgi kunni qamrab oladi va bu yillarni “hamkorlar bilan ishlash davri” hamda intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi takomillashuvi va rivojlanish davri deb atalishi mumkin. Huquqiy muhofaza qilinadigan intellektual mulk obyektlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish, xalqaro anjumanlar o‘tkazish orqali respublikamizda olib borilayotgan sohaga oid islohotlarni dunyo jamoatchiligiga yetkazish, sohaga oid milliy qonunchilikning qo‘llanishi va xalqaro aktlarning ijrosi yuzasidan nazorat-tahlil ishlari o‘tkazilishi, omma o‘rtasida targ‘ibot ishlarini yuritish kuchayganini shu yillarda ko‘rish mumkin.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yuksak texnologiyalarning kirib kelishi natijasida yaratilayotgan yangiliklar, texnik yechimlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma’lumotlar bazalari, o‘simglik navlari, hayvonlarning yangi zotlari, mikrosxemalar topologiyalarini yaratuvchi ijodkorlarning huquqini himoya qilish zaruriyati intellektual mulkni yangi normalar asosida muhofaza qilishni taqozo etadi.

Intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagи “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4168-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi Adliya vazirligi tizimiga o‘tkazilib, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) sifatida qayta tashkil etildi.

Agentlik intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilandi hamda unga intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasini ta’minalash bilan bir qatorda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasini ta’minalash va soha bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish kabi yangi vazifa va funksiyalar yuklandi.

Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishni ta’minalash maqsadida Agentlikka inellektual mulk sohasidagi qonunbuzilishlar uchun tegishli tartibda ogohnoma va taqdimnomalar kiritish, anilqangan ma’muriy huquqbazarlik

holatlari yuzasidan ma'muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomma rasmiylashtirish va sudlarga kiritish huquqlari berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagি PF-89-son Farmoniga muvofiq, Adliya vazirligi zimmasiga intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish hamda ixtiolar, tovar belgilari, mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha qo‘sishcha vazifalar yuklatildi. Intellektual mulk agentligi Adliya vazirligiga qo‘sib olinib, vazirlik tarkibida departmanet tashkil etildi.

Ushbu o‘zgarishlardan asosiy maqsad intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarda muvofiqlashgan faoliyatni ta’minalash hamda mavjud ma’muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelganligi bilan ifodalandi.

Mamlakatimizda adolat va huquq ustuvorligini mustahkamlash, aholiga professional xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruvni yaratish, deklarativ xususiyatga ega vazifalarni bekor qilish, funksiyalarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini aniq belgilash va takrorlanishlarning oldini olish orqali budget mablag‘larini tejash va ulardan oqilona foydalanish, shu jumladan aholining huquqiy muammolarini hal etishda adliya organlarining roli va mas’uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida Adliya vazirligida intellektual mulk sohasida yagona davlat boshqaruvini yuritish vazifasi yuklandi.

Shuningdek, intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish yo‘nalishida ham vazirlikka vakolatlar taqdim etildi.

Adliya vazirlig intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish hamda ixtiolar, tovar belgilari, mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishda, ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishda qo‘sishcha vakolatlarga ega bo‘ldi.

Adliya vazirligi intellektual mulk sohasini rivojlantirish maqsadida salmoqli ishlarni amalga oshirib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda mualliflik va turdosh huquqlarni samarali himoya qilish maqsadida xorijiy davlatlarning tajribalarini o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish uchun xalqaro tashkilot va chet el davlatlari bilan hamkorlik ishlari kuchaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 3-oktabrdagi PQ-385-son qarori bilan 2021-yil 12-noyabr kuni imzolangan MDH ishtirokchi-davlatlarining axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlariga bo‘lgan huquqlarni

muhofaza va himoya qilish bo'yicha hamkorligi to'g'risidagi Bitimi O'zbekiston Respublikasi uchun kuchga kirdi.

Shu bois Adliya vazirligi tomonidan ushbu xalqaro shartnomalar majburiyatlar bajarish hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni raqamli muhitdagagi ishonchli himoyasini ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etish maqsadida Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) tomonidan yuritiladigan "WIPO Alert" maxsus himoyalangan onlayn platformasidan foydalanishni_uchun Anglashuv Memorandumi (Letter of Understanding) imzolash bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek soha bo'yicha xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish uchun o'zaro ma'lumotlar almashish yo'lga qo'yish maqsadida 2022-yil 20-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ozarbayjon Respublikasi Intellektual mulk agentligi o'rtasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish sohasida hamkorlik Memorandumi imzolandi.

Ushbu Memorandumni amalga oshirish bo'yicha vazirlikning mutasaddi tarkibiy tuzulmalari tomonidan reja-dastur loyihasi ishlab chiqilib ko'rib chiqish uchun Ozarbayjon Respublikasi Intellektual mulk agentligiga yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimi loyihasi bo'yicha muzokaralar doirasida qo'shilish taklif etilayotgan xalqaro shartnomalar ro'yxatining 3-bandida O'zbekiston Respublikasining 1961-yil 26-oktabr kuni Rim shahrida imzolangan Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirish beruvchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasiga (Rim konvensiyasi) qo'shilishi yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, hududiy adliya organlari xodimlarining ish samaradorligini oshirish va sohaga oid huquqbazarlik holatlarini ko'rib chiqishda adliya organlari xodimlarining xatti-harakatlarini aniq belgilab beruvchi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 29-dekabrdagi 320-um-son buyrug'i bilan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish holatlarini tekshirish to'g'risida" Nizom tasdiqlandi.

Unga ko'ra adliya organlari tomonidan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilishi bilan bog'liq bo'lgan holatlarni tekshirish va aniqlangan huquqbazarlik bo'yicha tegishli chora ko'rish yuzasidan mas'ul xodimlarning xatti-harakatlari belgilab berildi.

Lekin intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi bilan bog'liq bir necha muammolarni ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasida mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha Madaniyat vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar agentligi, “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi vakolatli davlat organlari sifatida belgilangan bo‘lishiga qaramay, ushbu vazirlik va idoralar tomonidan soha bo‘yicha ishlar lozim darajada amalga oshirilmayapti.

Xususan, Madaniyat vazirligi qoshidagi “O‘zbekkontsert” tomonidan konsert va to‘y tomoshalarida mualliflik huquqini buzayotgan shaxslarga nisbatan keskin choralar yetarli darajada (litsenziyani to‘xtatish va bekor qilish) qo‘llanilmasdan kelinmoqda.

Shuningdek, Madaniyat vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2020-yil 12-oktabrda o‘tkazilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishning 78-son bayonida mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish hamda ular faoliyatini samarali tashkil etishga yaqindan ko‘maklashish vazifalari yuklatilgan.

Huddi shunday topshiriqlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF–6000-son Farmonida ham o‘z aksini topgan bo‘lsada, vazirlik tomonidan tegishli ishlar yetarli darajada amalga oshirilmayapti.

Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o‘tilayotgan mualliflik va turdosh huquqlarni “Intellektual mulk obyektlari bojxona reyestiri”ga kiritish bo‘yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan.

Ma’lumot uchun: Mazkur reyestrda hozirda faqat tovar belgilari kiritilgan bo‘lib, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari esa umuaman kiritilmagan²³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi noshirlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi. Agentlik noshirlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq talablar va shartlar buzilganligi aniqlangan taqdirda, nashriyotning faoliyatini o‘n ish kunidan oshmaydigan muddatga to‘xtatib turishga va aniqlangan qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda nashriyot faoliyatini tugatish to‘g‘risida belgilangan tartibda sudga da’vo arizasi berishga haqli.

Biroq agentlik tomonidan mualliflik huquqini buzayotgan nashriyotlarga nisbatan bunday choralarini ko‘rish bo‘yicha ishlar sustligicha qolmoqda.

Shu bilan birga mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzilish holatlarini raqamli muhitda tobora ortib borayotgan bo‘lishiga qaramay “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi tomonidan mualliflik va turdosh huquqarni buzgan veb-platformalarga nisbatan ma’muriy bayonnomma rasmiylashtirish holatlari pastligicha qolmoqda.

Ma’lumot uchun: “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi tomonidan veb-platformalarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan veb-sayt egalariga atigi 4 ta ma’muriy bayonnomma tuzilgan.

²³ https://imo.customs.uz/IMO_REESTR/

Xalqaro tajribada intellektual mulk himoyasida bojxona organlarining ro‘li masalasiga e’tibor qaratsak, Juhon savdo tashkilotining (JST) Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo‘yicha bitim (TRIPS) normalari va tamoyillariga muvofiqligin tahlil qilish maqsadida Tariflar va savdo bo‘yicha Bosh kelishuvning (GATT) 1994-yildagi Urugvay raundida qabul qilingan TRIPS talablari, Xalqaro tajriba va O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TRIPS Bitimi Juhon savdo tashkilotini tashkil etuvchi hujjatlar to‘plamining bir qismi bo‘lgan xalqaro shartnomasi hisoblanadi va intellektual mulkni tan olish, himoya qilish uchun minimal standartlarni belgilaydi, Bitim 73 moddadan iborat²⁴.

Bitim xalqaro savdoning rivojlanishidagi to‘sislarni va ularni kamaytirishga intilish, samarali hamda yetarli darajada himoyani ta’minalash zarurligini hisobga olgan holda intellektual mulk huquqlari va chora-tadbirlarini ta’minalash maqsadida ishlab chiqilgan.

TRIPS Bitimi Juhon savdo tashkilotining intellektual mulkka nisbatan yuqori samarali nizolarni hal qilish mexanizmlariga yo‘l ochib beradi hamda intellektual mulk obyektlarini tovar belgilari mualliflik huquqi yo‘nalishlarda himoya qiladi:

Bitimning 4-bo‘limi (*Chegara choralariga qo‘yiladigan aniq talablar*) 51-60 moddalari bojxona organlariga taaluqli hisoblanadi.

Bitimning 51-moddasiga (*Bojxona organlari tomonidan tovarlarning muomilaga chiqarilishini to‘xtatib turish*) asosan huquq egasining tovar belgilari huquq buzilishi holatlari mavjudligi yuzasidan asoslari mavjud bo‘lganda sud organlari yoki boshqa organlar bojxona organlari tomonidan ushbu tovarlarni to‘xtatishni so‘rab ariza berishi mumkinligi belgilangan.

Bitimning 55-moddasiga asosan bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektlarini o‘z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turishni o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatga amalga oshirilishini va bu sud organlari tomonidan ishini ko‘rishihamda boshqa choralar kurilganda qo‘sishimcha tarzda yana o‘n ish kunigacha uzaytirishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, TRIPS Bitimning 58-moddasida (“*ex-officio*” harakati)_a’zo davlatlarning vakolatli organida intellektual mulk huquqini buzilish holatlari bo‘yicha yetarli asoslар mavjud bo‘lsa, o‘z tashabbusi bilan bunday tovarlarga nisbatan chora ko‘rish vakolatiga egaligi belgilangan. Bunda, importyor va huquq egasi darhol tovanni erkin muomilaga chiqarish to‘xtatilganligi yuzasidan xabardor qilinadi.

²⁴[https://nrm.uz/contentf?doc=71188_soglashenie_po_torgovym_aspektam_prav_intellektualnoy_sobstvennosti_\(trips\)_\(_vto_urugvayskiy_raund_mnogostoronnih_torgovyh_peregovorov_marrakesh_15_aprelya_1994_g_\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=71188_soglashenie_po_torgovym_aspektam_prav_intellektualnoy_sobstvennosti_(trips)_(_vto_urugvayskiy_raund_mnogostoronnih_torgovyh_peregovorov_marrakesh_15_aprelya_1994_g_)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

Agar importyor tomonidan tovarni erkin muomilaga chiqarish to‘xtatib turilishiga e’troz bildirilsa, bunday to‘xtatish Bitimning 55-moddasida ko‘rsatilgandek, mutatis mutandis shartlari asosida to‘xtatiladi.

Bitimning 59-moddasiga (*Sud tomonidan himoya qilish vositalari*) asosan intellektual mulk obyektlariga (*kontrafakt tovarlariga nisbatan*) bo‘lgan huquqlar sud organlari tomonidan himoya qilish maqsadida ko‘rib chiqilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu masala bo‘yicha xalqaro amaliyotga e’tibor qaratsak, MDH davlatlari (*Ozarbajjon, Rossiya, Tojikiston, Qirg‘iziston, Ukraina*), AQSH hamda Xitoy bojaxona xizmatlari intellektual mulk huquqlarining buzilishida kontrafakt mahsulotlariga nisbatan choralar ko‘radi.

Qozog‘iston Moliya vazirligi huzuridagi Bojaxona xizmati tomonidan Milliy (870 ta tovar belgisi kiritilgan) va YEOIIning intellektual mulk obyektlari bojaxona reestrlari yuritiladi. Reestrga kiritish bepul tarzda amalga oshiriladi²⁵.

Reestrga kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni qoplash uchun 1000 BHM (3 063 000 tenge yoki 6 360 AQSH dol.) miqdorida sug‘urta summasi mavjud bo‘lishi lozim hamda reestrga kiritish uchun arizada himoyaga olingan intellektual mulk obyektining TIF TN kodlari ko‘rsatilshi belgilangan. Mazkur yo‘nalishda nazorat xavfni boshqarish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumot uchun, Qozog‘iston Respublikasining Jinoyat kodeksida intellektual mulk obyektiга bo‘lgan huquqlarni buzilishiga oid 3 ta modda (198, 199, 22-moddalar) mavjud, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mazkur yo‘nalishda tegishli moddalar mavjud emas²⁶.

Qirg‘iziston Moliya vazirligi huzuridagi Bojaxona xizmati tomonidan tomonidan Milliy (405 ta tovar belgisi kiritilgan) va YEOIIning intellektual mulk obyektlari bojaxona reestrlari yuritiladi, reestrga tovar belgilari 2 yil muddatga kirtiladi, bunga 1330 som (16 AQSH dol.) yig‘im hamda muddatini uzaytirish uchun 2500 som (31 AQSH dol.) yig‘im undiriladi²⁷.

Reestrga kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni qoplash uchun 10 000 AQSH doll. ekvivalenti miqdorida sug‘urta summasi mavjud bo‘lishi lozim. Bojaxona xizmati tomonidan faqatgina tovar belgilariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha faoliyat olib boriladi.

Turkmaniston Respublikasi Bojaxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari yo‘nalishida mualliflik huquqi, turdosh huquq, tovar belgilar, xizmat

²⁵ <https://kgd.gov.kz/ru/content/tamozhennyy-reestr-obektov-intellektualnoy-sobstvennosti-1>

²⁶ <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226>

²⁷ <http://www.k-a.kg/ru/anti-counterfeiting>

ko‘rsatish belgilariga nisbatan huquqlar himoya qilinadi. Intellektual mulk obyektlari bojxona reestri yuritiladi hamda reestrغا kiritish muddati 5 yil, buning uchun yig‘im undirilmaydi.

Mazkur yo‘nalishda bojxona nazoratini ta’minlashda xavfni boshqarish tizimi qo‘llaniladi.

Tojikiston Respublikasi Bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari bojxona reestri yuritiladi hamda reestrغا kiritish muddati 1 yildan 5 yilgacha bo‘lib, reestrغا kiritish uchun yig‘im undirilmaydi. Reestrغا kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni qoplash uchun 40 000 AQSH doll. ekvivalenti miqdorida sug‘urta summasi mavjud bo‘lishi lozim. Reestrغا kiritish uchun ariza bir oy davomida ko‘rib chiqiladi.

Xitoy Xalq Respublikasida xalqaro xuquqlarning tugashi tamoyiliga amal qilinib, unga ko‘ra, huquq egasi mahsulotini har qanday mamlakatda realizatsiya qilganidan so‘ng, mahsulotga nisbatan bo‘lgan egalik huquqi tugaydi va mahsulotning yangi egasi uni fuqarolik muomalasiga, davlat chegaralari orqali olib o‘tishga va boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqli hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida “parallel import”ga intellektual mulk egasining huquqlari buzilishi deb qaraladi va bu operatsiyani amalga oshirish ta’qilanganadi.

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi davlatlarida esa “parallel import” dolzarb masala bo‘lib, Rossiya Federatsiyada uni qonuniylashtirish masalasi o‘rganib chiqilmoqda va a’zo davlatlarda “Yagona bojxona reestri” yuritiladi va har bir a’zo davlatda alohida milliy bojxona reestrleri ham mavjud.

YEON Bojxona kodeksining 385-moddasiga muvofiq har bir reestrغا kiritilishi bo‘yicha berilgan arizada keltirilgan intellektual mulk obyekti uchun mazkur obyektni himoya qilish jarayonida importyorga (eksportyorga) yetkazilgan zararni qoplash uchun amaldagi kurs bo‘yicha 10 ming yevro ekvivalentidagi to‘lov ta’minotini taqdim etishi belgilangan²⁸.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Bojxona kodeksining 395-moddasining 2-bandiga asosan har bir reestrغا kiritilishi bo‘yicha berilgan arizada keltirilgan intellektual mulk obyekti uchun mazkur obyektni himoya qilish jarayonida importyorga (eksportyorga) yetkazilgan zararni qoplash uchun amaldagi kurs bo‘yicha 500 ming rubl ekvivalentidagi to‘lov ta’minotini yoki sug‘urta summasini taqdim etishi belgilangan²⁹.

Qonunchiligidizda Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk huquqini himoya qilishning huquqiy asoslari Bojxona kodeksining 56-bobi va O‘zbekiston

²⁸ <https://www.alta.ru/codex-2018/R7/GL52/ST385/>

²⁹ <https://www.tks.ru/codex/1000000038>

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-sun qarori talablari asosida belgilangan bo‘lib, himoyani asosini “Intellektual mulk obyektlari bojxona reestri” tashkil etadi.

Reestr intellektual mulk obyektlarini himoya qilish uchun asosiy ma’lumotlar bazasi sifatida bojxona organlari tomonidan bojxona rasmiylashtiruvi va nazorati jarayonida foydalaniladi.

Tovar belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Madrid shartnomasi va Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgilari himoyaga olingan hisoblanadi.

Natijada xalqaro va milliy ro‘yxatdan o‘tgan huquqiy himoyaga ega bo‘lgan intellektual mulk obyektlari, bojxona reestriga kiritilmagan bo‘lsa, bojxona organi tomonidan himoya qilinmaydi.

Bojxona kodeksiga asosan bojxona organlari tomonidan ko‘riladigan choralar huquq egasining o‘ziga tegishli bo‘lgan huquqlarini himoya qilishida sud organlariga murojaat qilishi uchun amalga oshiriladi.

Bojxona organlari tomonidan to‘xtatib turish muddati mobaynida huquq egasi tomonidan sud organlariga murojaat qilinganligi haqida bojxona organlariga sud ajrimi taqdim etilmasa bunday tovar belgilangan tartibda chiqarib yuboriladi.

Bugungi kunga qadar Intellektual mulk obyekti bojxona reestriga 470 ta intellektual mulk obyektlari kiritilgan bo‘lib, ularning barchasini tovar belgilari tashkil etadi. Shundan 274 tasi chiqarib yuborilgan, amalda 196 ta³⁰.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-sun qarori bilan 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab, bojxona organlari tomonidan Reestrga kiritilgan intellektual mulk obyektlari huquq egalarining qonuniy manfaatlarini quyidagicha himoya qilish huquqi berildi:

bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonida intellektual mulk huquqlari buzilganligi alomati aniqlanganda, huquq egasini xabardor qilish;

Reestrga kiritish to‘g‘risidagi arizalarni elektron tarzda yuborish va qabul qilish, ularni ko‘rib chiqish bosqichlarini onlayn ravishda kuzatib borish.

Shuningdek, ishlab chiqilayotgan loyihalarga “ex officio” tartibi kiritilgan bo‘lib, bojxona organlariga intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishda bojxona reestriga kiritilmagan obyektlarga nisbatan ham himoya qilish huquqi berilmoqda.

Shu bilan birga tovarlardagi intellektual mulk huquqlarining buzilganligi bo‘yicha belgilari xavfni boshqarish tizimini qo‘llash orqali aniqlanishi hamda choralar ko‘rish

³⁰ https://imo.customs.uz/IMO_REESTR/

to‘g‘risidagi arizani hududiy bojxona boshqarmalariga ham berishi mumkinligi belgilandi.

Shuningdek, ushbu sohada ham bir necha muammolarni ko‘rishmiz mumkin:

Birinchidan, bugungi kunga qadar huquq egalari tomonidan bojxona organlariga intellektual mulk obyektlariga nisbatan chora ko‘rish bo‘yicha taqdim etilayotgan arizalar uchinchi shaxs tomonidan huquq egasining ruxsatisiz asl tovarlarni olib kelishini to‘xtatish bilan bog‘liq murojaatlarni tashkil etmoqda, ya’ni tovarlarda “kontrafakt” yoki “soxtalashtirish” alomatlari mavjud emas.

(*bojxona organlariga chora ko‘rish bo‘yicha taqdim etilayotgan arizalar asosan mutloq huquq buzilishi bilan bog‘liq holatlarni tashkil etadi, amaliyotida bu kabi xarakatlar “parallel import” deb nomlanadi va bugungi kunga qadar “parallel import” tushunchasiga xalqaro hamda milliy qonunchilikda ta’riflar berilmagan*).

Fuqarolik kodeksining 1107¹-moddasida bevosita tovar belgisining egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan fuqarolik muomalasiga qonuniy tarzda kiritilgan tovarlarga nisbatan tovar belgisidan boshqa shaxslarning foydalanishi mazkur tovar belgisiga doir mutlaq huquqning buzilishi bo‘lmasligi belgilangan.

Amaliyotda Sud organlari tomonidan import qiluvchilarning tovarlari fuqarolik muomalasiga kiritilganligi, tovarlar kontrafakt bo‘lmasligi sababli bu holat yuzasidan mutlaq huquqning buzilishi emasligi bo‘yicha qaror qabul qilinib, tovarlarni importiga ruxsat berilmoqda. Bunda import qiluvchi tomonidan ko‘rilgan zarar (*bojxona omborida saqlash, shartnomani o‘z vaqtida bajarmaslik, xaridorni yo‘qotish, ma’naviy zarar*) huquq egasi tomonidan qoplab berilmayapti, chunki import qiluvchi ko‘rilgan zararni qoplatish uchun Sud organlariga alohida murojaat etishi lozim bo‘lmoqda.

Qaror bilan to‘xtatib turish uchun beriladigan arizada talab qilinadigan 10 ta ma’lumotlardan 7 tasi chiqarib tashlandi, endilikda huquq egalarining tovarlarni to‘xtatib turish yuzasidan arizalari soni ko‘payib boradi.

Shu bois, huquq egalari tomonidan tovarlarni to‘xtatishdan avval to‘lov majburiyatini kiritilishi maqsadga muvofiq.

To‘lov majburiyatini kiritilishi, import qiluvchi tadbirkorlarni sababsiz tovarlarini to‘xtatilishini, monopoliyani, tovarlar narxini sun’iy oshishini oldini oladi.

Agar to‘xtatish yuzasidan arizasi o‘z tasdig‘ini topsa ushbu summa huquq egasining o‘zida qoladi.

Ikkinchidan, Intellektual mulk obyektlarini bojxona reestriga kiritish bepul amalga oshiriladi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, intellektual mulk obyektlarini bojxona reestriga kiritilganlik uchun yig‘im undirish maqsadga muvofiq.

Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatga (*reestrga kiritish uchun arizalarni “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali berish yuzasidan elektron dasturlarni va xavf profillarini ishlab chiqish, server xizmatlari, tovarlarni ko‘rikdan o‘tkazish, sud ishlarida ishtirok etish*) nisbatan yig‘im sifatida kiritiladi.

Ushbu pul mablag‘lari quyidagi harajatlarni qoplash uchun yo‘naltiriladi:

- server uskunasining eskirishi bo‘yicha amortizatsiya harajatlari (taxminan 3,0 mlrd so‘m);
- server uskunasining texnik xizmat ko‘rsatishi bo‘yicha harajatlar (taxminan 500,0 mln. so‘m);
- “Yagona darcha” BATni ishga tushirilishi bilan ma’lumotlar oqimining 10 foizga oshishi natijasida ma’lumotlar uzatish kanalining ijerasi bo‘yicha harajatlar (taxminan 20,0 mln. so‘m oyiga);
- “Yagona darcha” BATni uzlucksiz ishlashini ta’minalash va takomillashtirish hamda intellektual mulk bo‘yicha xavf profillarini ishlab chiqish bilan band 10 ta xodimlarga Bojxona qo‘mitasining maxsus fondidan sarflanadigan ustama haqlari (taxminan 500 mln. so‘m).

Shu kunga qadar intellektual mulk obyektlari faqat huquq egasining arizasi asosida to‘xtatish amalga oshirilgan. Bunda arizada import qiluvchi, qachon olib kelishi, olib kelingan post nomi, transport vositasi va boshq. ko‘rsatilishi majburiy bo‘lgan. Endilikda bojxona organlari tomonidan o‘z tashabbusi asosida intellektual mulk obyekti huquqi buzilganligi aniqlanmoqda.

Uchinchidan, Bojxona organlari TRIPS Bitimiga asosan intellektual mulk obyektlarini tovar belgilari va mualliflik huquqi yo‘nalishlarda himoya qiladi.

Reestr intellektual mulk obyektlarini himoya qilish uchun asosiy ma’lumotlar bazasi va xavfni boshqarish tizimining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda mualliflik huquqi egalarining ro‘yxati (reestri) yuritilmasligi natijasida bojxona organlari tomonidan o‘z tashabbusi asosida mualliflik huquqlarni himoya qilishda, haqiqiy muallif kimligini aniqlashda muammoli holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Intellektual mulk sohasidagi huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga barham berish bo‘yicha ishlarning lozim darajada bajarilmaganligi, davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimining samarasizligi, idoralararo mustahkam hamkorlikning mavjud emasligi, intellektual mulk sohasida malakali kadrlarning yetishmasligi, shuningdek patent bojlari va to‘lovlarining yuqori darajada ekanligi ushbu sohani rivojlantirishga salbiy ta’sir etmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan tahlillar asosida intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suramiz.

- Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda ijrochilar tomonidan boshqa shaxslarga tegishli bo‘lgan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun qo‘llaniladigan samarali huquqiy ta’sir choralar, xususan, tegishli litsenziyani to‘xtatish yoki bekor qilish tartibini yaratish;

- ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirishlar beruvchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasiga (1961-yil 26-oktabr, Rim) qo‘shilish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va “O‘zkomnazorat”ning hududiy tuzilmalari bilan hamkorlikda kitob va boshqa noshirlik mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullanuvchi bozor va savdo rastalarida kontrafakt nusxalarni aniqlash hamda belgilangan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash ishlarini kuchaytirish;

- Adliya vazirligi tomonidan tayyorlangan mualliflik va turdosh huquq obyektlaridan foydalanish bo‘yicha namunaviy shartnoma shakllaridan keng foydalanilishini yo‘lga qo‘yish va bu sohada nazoratni kuchaytirish va boshqalar;

- Adliya vazirligining Intellektual mulk departamenti tomonidan mualliflik huquqi egalarining reestrini yuritish masalasini ko‘rib chiqish;

- Monopoliyani va tovarlarni noqonuniy kirib kelishini oldini olish maqsadida tovarlarni to‘xtatishdan avval huquq egalari tomonidan mulkiy zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi majburiyatnomaga taqdim etish masalasini kiritish;

-“O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasiga intellektual mulk obyektlarini bojxona reestriga kiritish uchun bojxona yig‘imi undirish masalasini kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi
4. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni
5. “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni
6. “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni
7. Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-mayda 1361-tartib raqami bilan ro‘yxatga olingan Sanoat namunasiga O‘zbekiston Respublikasi patentini berish haqidagi talabnomani tuzish, topshirish va ko‘rib chiqish qoidalari

8. Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo‘llanilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenum qarori
9. ["Гражданский кодекс Российской Федерации \(часть четвертая\)" от 18.12.2006 N 230-ФЗ \(ред. от 07.10.2022\)](#)
10. Закон Республики Казахстан от 10 июня 1996 года № 6-І «Об авторском праве и смежных правах» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 20.06.2018 г.)
11. Таможенный кодекс Евразийского экономического союза от [11 апреля 2017 года](#)
12. Интеллектуал мулк. Дарслик. Масъул муҳаррирлар: ю.ф.д., проф., О.Оқюлов, ю.ф.ф.д. (PhD), доцент Н.Э.Гафурова // Муаллифлар жамоаси. –Т.: ТДЮУ нашриёти , 2019. – 588 бет. 322.
13. Федоров А. А. Правовая охрана проектных решений в Украине: монография / А. А. Федоров. – Одесса: Бахва, 2015. – 172 с.
14. Adliya vazirligi Intelektual multk departamanti 2022-yil hisobotlari.
15. Bojxona qo‘mitasi intellektual multk bo‘yicha tahlillari.

Web-saytlar:

<https://www.lex.uz>

<https://www.norma.uz>

<https://www.wipo.int>